

KICHKINA SHAHZODA ASARI HAQIDA

Ro'ziyeva Manzura

Navoiy Davlat Pedagogika institutining 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yerdagi turli sayyoralarini ziyorat qilgan Kichkina shahzoda haqida hikoya qiladi. U yolg'izlik, do'stlik, sevgi va yo'qotish mavzulariga bag'ishlanganligi haqida fikr yuritiladi.

Tayanch Iboralar: kichkina shahzoda, sahrodagi atirgul, sevgi, do'stlik, bolalik.

ABOUT LITTLE PRINCE

The student of NSPI :Ro'ziyeva Manzura

Abstract: This article tells about a little prince who visited various planets on Earth. It is thought that it is dedicated to the themes of loneliness, friendship, love and loss.

Key words: little prince, rose in desert, love, friendship, childhood.

KIRISH: Antuan de Sent-Ekzyuperining asarlari dunyoning 200 tiliga tarjima qilingan. Jumladan, uning "Kichkina shahzoda" asari Xayriddin Sultonov tomonidan va "Istehkom" qissasidan parcha Abdug'ofur Qosimov tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan.¹ Kichkina shahzoda asari bolalar uchun yozilganligi yaqqol ko'rinish turadi. Bu asarda yozuvchi asar qahramoni bo'ladi. U hikoya qilib berishdan tashqari uchuvchi obrazida ham namoyon boladi. Bu esa yozuvchining qay darajadagi mahoratliligi hamda asarga jon jahti bilan kirishganligi, uning asar ichidagi bir qahramonga aylanganidan yaqqol ko'rinish turadi.

Antuan de Sent-Ekzyuperi – XX asr fransuz adabiyotining yirik namoyandalaridan biri, mohir uchuvchi, shoir va yozuvchi, yosh-u qarining sevimli asari "Kichkina shahzoda"ning muallifi. "Uchuvchi" (1926), "Janubga xat" (1929), "Tungi parvoz" (1931), "Bashar sayyorasi" (1939), "Harbiy uchuvchi" (1942), "Istehkom" (1948), "Yoshlik maktublari" (1953) kabi asarlar Antuan de Sent-Ekzyuperining qalamiga mansubdir.

Antuan de Sent-Ekzyuper qalamiga mansub, yosh–u kattaning ko'nglidan birdekk joy olgan afsonaviy "Kichkina shaxzoda" asari ilk marotaba 1943 yil 6 aprel kuni Nyu-Yorkda chop ettirilgan edi va bu asar hozirgi kunga qadar dunyoning 180 dan ortiq tilga tarjima qilindi.²

„Kichkina shahzoda" asari Ekzyuperining eng kichik asarlaridan biri hisoblanadi. Unda inson hayotining mazmuni haqida so'z boradi. Asar adibning do'sti-Leon Vertga bag'ishlangan. Kichkina shahzoda ezhulik ramzi. U Yerda ezhulikni sof holatda uchrata olmaydi. Asarda insonlarga xos fazilat va nuqsonlar ramzlar orqali aks ettirilgan. Bu asar faqat bolalar uchun mo'ljallangan,-deb hisoblovchilar adashadi deb o'yayman.

¹ <https://gglit.uz/kichkina-shahzoda/>

² <https://kun.uz/uz/news/2015/11/25/%E2%80%9Ckichkina-shahzoda%E2%80%9Ddan-falsafiy-fikrlar>

„Odamlar bir chamanzorda besh mingta gul o'stirar ekanu, izlaganini topolmas ekan. " Bu holat achinarli, menimcha. Dunyoda gullar ko'p, yulduzlar ko'p. Lekin tasavvur qiling, o'zingizniki yo'q...

Bu misrada yozuvchi har bir insonning o'zini qalbidan joy olgan va uni hech qachon hech bir boshqa narsada halovatini topolmasligini e'tirof etgan.

„Olislarda, qaydadir mening ham gulim bor", deya olasizmi? (Demak hammasi joyida.)

Kerakli narsani axtarish va topish uchun ichki intilish ham juda zarur. Qo'rquv va nochorlik insonni sindiradi. Eng yomon aldov-insonning o'zini aldashi.

Eng oliv mo'jiza ham aslida, insonning tug'ilishi, zavq bilan yashashi bo'lsa kerak.

Inson dunyoda do'stlik va muhabbat uchun tug'iladi. Agar muhabbat va do'stlikning asl mohiyatini anglay olmasa, hech bir narsaning haqiqatini to'g'ri tushuna olmaydi, anglamaydi.

Kichkina shahzoda o'zining kichik sayyorasida kuniga o'nlab marta ko'rish mumkin bo'lgan Quyosh botishini tomosha qilishni yaxshi ko'radi. Kichkina shahzoda o'zini bu yerda baxtsiz his etib, koinotning boshqa joylarini o'rganish uchun uchib ketgandi. Boshqa bir qancha sayyoralarini ziyorat qilib, ko'plab g'alati katta yoshlilar bilan uchrashadi: o'zini yulduzlarni boshqaruvchisi deb o'ylaydigan qiro, boshqalar uni maqtashini istagan shuhratparast, ichishdan uyalishini unutish uchun ichuvchi piyonista, doimiy ravishda yulduz sanaydigan ishbilarmon, ko'p yulduzlarga egalik qilaman deb o'ylaydigan va undan-da ko'prog'ini sotib olishni xohlaydigan, sayohat hikoyalarini yozadigan, lekin hech qayerga bormaydigan geograf.³

Asar qahramoni – Kichkina shahzodaning o'z olami, kichik sayyorasi bor. Unda esa faqatgina uchta vulqon (uning ham bittasi harakatsiz) va u uchun beqiyos qiymatga ega, hammadan ham ziyoda ko'rgan feruza guli bor. Shahzoda yerga tushganda ko'plab feruza gullarga duch keladi, ammo uning uchun o'z guli qadrli va azizdir. Chunki u yagona va yolg'iz, dunyodagi boshqa birorta gulga o'xshamaydigan feruza gulni asrab-avaylashni o'z zimmasiga olgan. Jajji, sofdil sayohatchimiz yetta sayyorani kezib, birorta fuqarosi bo'lmasa ham u buyruq berishni yaxshi ko'radigan manman, kekkaygan qiro; shuhratparast; piyonista, korchalon kabi hayotda nima uchun yashayotganini bilmaydigan ko'plab insonlar bilan tanishadi. Asarni o'qigan kishida bir savol tug'iladi: Bu, axir, biz emasmi?! Ha, o'sha shuhratparast bizmiz, e'tibor, izzat-hurmat, hamma narsa bizga kerak, biroz e'tiborsizlik bo'lsa buni o'zimizga haqorat deb bilamiz. Lekin hech o'ylamaymiz-ki, biz o'zi bunga loyiqmizmi?.. Uchinchi sayyoradagi piyonistadan shahzoda "nega ichasan?" – desa, "ichishimning uyatlagini unutish uchun"⁴ – deb javob beradi. Deyarli barchamiz qilayotgan ba'zi ishlarimiz xato ekanligini bilsak-da, uni qilishda davom etamiz. To'rtinchı sayyorada yashaydigan korchalon uchun hech narsaning ahamiyati yo'q, unga faqat sonlar va hisob-kitob bo'lsa yetadi. Bu qiyofada men farzandlaridan bolaligini tortib olgan millionlab ota-onalarni ko'rdim. Ular bir vaqtlar bola bo'lganliklarini, mehr-muhabbat va e'tiborga qanchalar tashna yashaganini bilishganda edi, pul, ish deb eng muhim narsalarni chetga surishmagan bo'larmidi...

³ "Daryo" kolumnisti Nurbek Alimov "Jahon adabiyotining eng buyuk asarlari" 2019

⁴ Antuan de sent ekzyuperi "Kichkina Shahzoda" asari.

Beshinchi sayyoradagi fonuschi majoziy timsol bo'lib, bu dunyoning o'tkinchiligiga, bugun lozim deb bilgan ishimiz ertaga hech narsaga yaramay, keraksiz bo'lib qolishi mumkinligiga sha'ma qilmayotganmikan?! Oltinchi sayyorada esa shahzoda geografni uchratadi. Keraksiz va muhim bo'lмаган, aslida o'zi ham nima qilayotganini bilmayotgan insonlar obraq shu timsol orqali ochib berilgan. Umuman olganda, bu sayyoralardagi barcha qahramonlarni birlashtirsak, bizning o'zimiz, odatlarimiz va ko'rinishimiz zohir bo'ladi. Kichik shahzoda esa ularni taftish qilayotgan vijdonimizga o'xshaydi.

Asardagi yana bir asosiy personaj ilon bo'lib, adib bejiz uni tanlamagan. Ular panada hech kimga bildirmay gaplashishadi. Odamlar ham shunday emasmi?! Ular o'z vijdonlari bilan hech kimga aytmay dardlashadi-ku. Vijdonini o'ldirib, so'ngra oislardan unga nazar tashlaydi.

Ertakda shahzoda do'stlik nima ekanligini bilib oladi. U tushunadi, do'stlari bo'lsa, u hech qachon yolg'iz qolmaydi. Quyosh faqat do'stlari bo'lganlarning hayotini yoritadi. Donolik qozonib, Yer sayyorasida, u o'zi Sahroi qumida baxtsiz hodisaga uchragan uchuvchiga ruhiy yordam beradi. Shahzoda unga hayotda nima haqiqat, nima yolg'on ekanligini ko'rishga yordam beradi, hatto o'lim oldida ham tushkunlikka tushmaslikka yordam beradi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, kitob bolalar uchun yozilganiga qaramay, asar nafaqat bolalar balki, hayot va tabiat uyg'unligida yaratilgan. Va bolalik insonning eng beg'ubor va haqiqiy ko'rinishidir ya'ni Allah har bir bandani qalbida muhabbat va sevgiga to'la hamda do'stlik degan tuyg'uni qadrlovchi qilib yaratilgani namoyon bo'ladi. Kitob shunchalik samimiyligi, kayfiyatga yoki uni o'qiyotgan yoshingizga qaramay, to'liq o'ziga jalb etadi. Ushbu asar har bir o'qiganda yangicha tuyg'u va yangicha ma'lumot olishga ko'maklashadi.

REFERENCES

1. Antuan de sent ekzyuperi "kichkina Shahzoda " asari
2. Daryo" kolumnisti Nurbek Alimov "Jahon adabiyotining eng buyuk asarlari" 2019
3. <https://kun.uz/uz/news/2015/11/25/%E2%80%9Ckichkina-shahzoda%E2%80%9Ddan-falsafiy-fikrlar>
4. <https://gglit.uz/kichkina-shahzoda/>